

H. NURMATOV, N. NORXO'JAYEV

MUSIQA

**Umumiy o'rta ta'llim maktablarining
2-sinfi uchun darslik**

Qayta ishlangan 11-nashri

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'llimi vazirligi
nashrga tavsiya etgan



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2016

UO'K 372.878(075)

KBK 74.266.7

N 94

Taqrizchilar:

G. Sharipova – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti;

Sh. Hamrayeva – Toshkent shahar Chilonzor tumani 181-umumta'lim mактабining муsiqa madaniyati fani o'qituvchisi;

U. Mirzahmedov – Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 2-umumta'lim mактабining муsiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

H. Nurmatov, N. Norxo'jayev.

Musiqa: 2-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 11-nashri. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. — 72 b.

1.1.2. Muallifdosh.

UO'K 372.878(075)

KBK 74.266.7

ISBN 978-9943-03-090-9

© H. Nurmatov, N. Norxo'jayev

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING
DAVLAT MADHIYASI



Abdulla Oripov so'zi Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

N a q a r o t:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

MUSIQA XONASI



BIRINCHI CHORAK

QO'SHIQ AYTISH QOIDALARI

1. Qo'shiq aytayotganda qomatni rostlab, erkin turish kerak.
2. Qo'shiqni mayin, ohista va baqirmsandan kuylang. So'zlarni aniq, burro talaffuz qiling.
3. Qo'shiqdagi urg'uli bo'g'inqilarni cho'zibroq aytинг.
4. Nafasni avaylab, misra oxirigacha yetkazib ishlating.
5. Jamoa bo'lib qo'shiq ijro qilinganda o'rtoqlaringiz bilan birga kuylang.
6. Qo'shiq kuylayotganda musiqa o'qituv-chingizning qo'l harakatlariga qarab ko'rsatmalarini aniq bajaring.
7. Qo'shiq aytayotganda avval she'r mazmunini yaxshi tushunib oling.

Qo'shiq tinglaymiz

VATANJONIM – VATANIM

P. Mo'min she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

O'rtacha tez

Music notation in G major, 6/8 time. The lyrics are:

Va - tan - jo - nim – Va - ta - nim, ko' - zim quv- nab
ko'r - ga - nim. Is - tiq - lol - dan
kul - ga - nim, O'z - be - kis - ton - gul - sha - nim!

Vatanjonim – Vatanim,
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim,
O'zbekiston – gulshanim!


Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.
Vatanjonim – Vatanim,
O'zbekiston – gulshanim.




TAKRORLASH

NOTA YO'LI. NOTALARNING YOZILISHI VA NOMLANISHI

Musiqa tovushlari nota bilan yoziladi. Notalar yoziladigan beshta chiziqqa NOTA YO'LI deyiladi.



Nota yo'lining boshiga SKRIPKA KALITI qo'yiladi.





SKRIPKA KALITI sol kaliti ham deyiladi. U nota yo'lining ikkinchi chizig'ini o'rab olganligi uchun shu chiziqqa yoziladigan nota ham SOL NOTASI deb ataladi.



SOL NOTASI

Musiqada yettita nota bo'lib, ular nota yo'lining beshta chizig'iga joylashadi va quyidagicha nomlanadi:




**Tinglaymiz va musiqa jo'rligida
harakatlar qilamiz**

USMONIYA


(Marshsimon qadam bilan jo'r bo'lish)

O'zbek xalq kuyi

Marsh sur'atida



TAKRORLASH
QANDAY TOVUSHLARNI BILASIZ?
Shovqinli tovushlar



Musiqiy tovushlar



Qanday tovushlar shovqinli tovushlar
deyiladi?

Qanday tovushlar musiqiy tovushlar
deyiladi?



YAKKANAVOZLIK



Musiqani yakka holda ijro etish **YAKKA-NAVOZLIK** deyiladi.

Yakkanavozlikda musiqa tinglaymiz QASHQARCHA

O'zbek xalq kuyi

Tez

mf

f (p)

10

The musical score consists of four staves of music. The first staff starts with a quarter note followed by eighth-note pairs. The second staff continues with eighth-note pairs. The third staff begins with a dynamic change to forte (f) and a dynamic marking (p). The fourth staff concludes the piece.

Qo'shiq kuylaymiz

MAKTABIM

I. Muslim she'ri

Tezroq



O-na ka-bi meh-ri-bon, i-l(i)m, fan-lar- ga ma-kon. Yay-rab o'-qiy-
man har on, qa-d(i)r-do-nim, mak-ta-bim! Sen-da fan-lar xil-ma-xil,
on-gim o'- sar yil-ma-yil. Se-vinch-lar-ga to' -lar dil,
q-a- d(i)r- do- nim mak- ta- bim! Mak- ta- bim!


F. Nazarov musiqasi

Men dunyoda baxtiyor,
Hech chekmayman
alam-zor,
Vatanim mangu gulzor,
Qadrdonim maktabim!

A'lo o'qishdir burchim,
Sarf etaman bor kuchim.
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdonim maktabim!

NOTALARNING BO'LINISHI


Notalar turli cho'zimda bo'ladi. Ular uzun-qisqaligi bilan bir-biridan farq qiladi.



Butun nota
butun olmaga teng.
Yarim nota
yarim olmaga teng.



Chorak nota
chorak olmaga teng.
Nimchorak nota
nimchorak olmaga
teng.



Notalar qanday cho'zimda ekanligini
mustaqil aniqlang.



JO‘RNAVOZLIK



Ikki cholg‘u sozida birgalikda kuy ijro etili-shiga JO‘RNAVOZLIK deb aytiladi.

Musiqa tinglaymiz SANAM UFORISI

O‘zbek xalq kuyi

Sho‘x



A musical score consisting of seven staves of music. Each staff begins with a treble clef and a common time signature. The music consists primarily of eighth notes and sixteenth notes, with some quarter notes and half notes. Measures are separated by vertical bar lines. The score includes rests and a final measure ending with a double bar line and repeat dots.

Qo'shiq kuylaymiz

QIZALOQ

T. Nazarov she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq

Yal-yal yo-nar yuz - la- ring, Mis - li lo - la-

qiz-g'al-doq. Yay-rab, yay-rab ku- li - shing Bun-

cha shi- rin, qi- za- loq. Oh, qi- za- loq, qi- za- loq,

Ik - ki ko'- zi ko'z-mun-choq. Qi- liq - la - ring


chi-roy - li, Lo'p - pi yuz- li bo'- pa - loq.

NOTA YO'LIDA JOYLAGHGAN NOTALAR


Notalar turlicha yoziladi:

- a) chiziqlar ustida joylashgan notalar;
- b) chiziqlar orasida joylashgan notalar;
- d) chiziqlar ostida va ustida joylashgan notalar;
- e) qo'shimcha chiziqlar, qo'shimcha chiziqlar ustida va ostida joylashgan notalar.


a)




b)



d)



e)



Qo'shiq tinglaymiz

OTA-ONALARGA

E. Rahimov she'ri

G'. Qodirov musiqasi

Tezroq

O-nam de-sam ko'- zim- ga
Bog'-bon ke-lar, bog' kelar.
Do-im ta-yanch o'zimga,
Yulduz o'pgan tog' kelar.

1. 2.

bog' ke- lar, lar.
O-nam bosh-da os-mo-

nim, of-tob un- ga du-go- na. Otam bosh-da

pos-bo- nim, Of-tob un- ga ham-xo- na,

ham- xo- na.

Onam desam ko'zimga
Bog'bon kelar, bog' kelar.
Doim tayanch o'zimga,
Yulduz o'pgan tog' kelar.

Toshqinligin soy deyman,
Arzir daryo yon bersa.
Chiroyini oy deyman,
Arzir dunyo tan bersa!



Qo'shiq kuylaymiz

O'YNAYLIK

A. Rahmat she'ri

I.L. Akbarov musiqasi

Jonli

Do, re, mi, fa, sol, sol, sol, deb cher- ta- man
to- rim- ni, Soz bo'lgan-da ja-rang-lab, Kuy-ga
so- lar ba- ri- ni. Kuy-ga so- lar ba- ri-
ni. Sol, sol, do, sol, sol,
do, sol, fa, mi, re, do.

Do, re, mi, fa, sol, sol,
Deb chertaman torimni,
Soz bo'lganda jaranglab,
Kuyga solar barini.

Ulug' Vatan sha'niga
To'qiladi kuylarim.
Dutorim-la avj olar
Mening shirin o'ylarim.



Bular kimler?



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi
musiqasini kim yozgan?

Madhiyani qay holatda tinglash kerak?

Qo‘sishq aytganda qanday qoidalarga rioya qilish
kerak?

Qanday tovushlarni bilasiz?

«Vatanjonim – Vatanim» qo‘sishq‘ining mazmunida
nima yoritilgan?

Yakkanavozlik deb nimaga aytildi?

Jo‘rnavozlik deb nimaga aytildi?

Notalarning nomlarini ayting.

Notalarning cho‘zimini va bo‘linishini aytib bering.

Sizga qanday qo‘sishqlar va kuylar ko‘proq yoqdi?



IKKINCHI CHORAK

Xonandalar ansambli

Ikki yoki undan ko'proq xonandalarning bir bo'lib kuylashi – ANSAMBL deyiladi.



FARG'ONACHA

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez

Musical notation for the first measure of the song "Farg'onacha". It consists of a single staff in G major (indicated by a sharp sign) and common time (indicated by a 'C'). The melody begins with a quarter note followed by an eighth-note pair, then a quarter note, another eighth-note pair, and finally a quarter note.

Musical notation for the second measure of the song "Farg'onacha". It continues from the previous measure, showing a quarter note, an eighth-note pair, a quarter note, an eighth-note pair, and a quarter note.

Qo'shiq kuylaymiz

KITOBIM QO'LIMDA

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha tez

The musical score consists of three staves of music in common time (indicated by '3') and treble clef. The first two staves begin with 'O'rtacha tez' (medium tempo). The lyrics are:

Ki-to-bim qo'-lim-də, qa-rang-lar, qa-rang-lar.
O'-qi-sam so'z-la-ri ti-lim-də ja-rang-lar,
ja-rang-lar.

The third staff begins with 'Naqarot' (ritardando) and ends with a fermata over the last note. The lyrics are:

Ki-to-bim qo'-lim-də, Ma'-no-si ko'ng-lim-də.

The fourth staff is labeled 'CODA' and shows a melodic line with the lyrics:

A - - - a - - - rit.

The fifth staff continues the melodic line with the lyrics:

A - - - a - - -

Kitobim ajoyib,
Juda ko'p she'ri bor
Eng yaxshi odoblar
Yozilgan yeri bor—
She'ri bor.

Naqarot:

Kitobim qo'limda,
Ma'nosi ko'nglimda.



NOTALAR CHO'ZIMINING SANOG'INI O'RGANAMIZ

 Butun nota 1 i, 2 i, 3 i, 4 i ga sanaladi.

 Yarim nota 1i , 2 i ga sanaladi.

 Chorak nota 1 i ga sanaladi.

 Nimchorak nota 1 yoki i ga sanaladi.


NOTALAR NOMI VA CHO'ZIMINI O'ZIMIZ ANIQLAYMIZ VA SANAYMIZ



NORIM-NORIM

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez



QADIM TURON

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha tez

Uch, Hu- mo qush, Par- vo- zi xush.

Os- mo nim- da, Ma- ko- nim- da.

Keng Tur-kis- ton, Men-ga ma-kon,

El qa- d(i)r- don, O'z- be- kis- ton.

Qa- dim Tu- ron!

Uch, Humo qush,
Parvozi xush.
Osmonimda,
Makonimda.

N a q a r o t:
Keng Turkiston,
Menga makon.
El qadrdon,
O'zbekiston

Samosi sof,
Chaqnar oftob.
Bag'ri kengdir,
Do'sti tengdir.

N a q a r o t
Aytay chindan,
Baxtim sendan.
Sen doimo
Bor bo'l, Humo!

N a q a r o t

CHOLG'ULARNI FARQLANG



Tinglaymiz

XORAZM LAZGISI

Xorazm xalq kuyi

Quvnoq

The musical score for "Xorazm Lazgisi" (Quvnoq part) is presented in G major and 6/8 time. It features eight staves of music, each starting with a treble clef and a key signature of one sharp. The first staff begins with a whole note followed by a half note. The second staff begins with a quarter note. The third staff begins with an eighth note. The fourth staff begins with an eighth note. The fifth staff begins with an eighth note. The sixth staff begins with an eighth note. The seventh staff begins with an eighth note. The eighth staff concludes with an eighth note.

Qo'shiq kuylaymiz

ARCHA BAYRAMI

A. Rahmat she'ri

Ik. Akbarov musiqasi

Tez



Sha-mol op-poq qor-lar-ni Qu-vib- qu-vib xo'p yel-di.

p



Biz-ga u-zoq o'r- mon-dan Ar-cha meh-mon-ga kel-di.



Biz-ga u-zoq o'r- mon- dan Ar-cha meh-mon-ga kel-di.

Shamol oppoq qorlarni
Quvib-quvib xo'p yeldi.
Bizga uzoq o'rmongan
Archa mehmonga keldi.

Qorbobomiz ko'p yaxshi,
Bizga sovg'a keltirar.
Chiroqlarning nurida
O'yinchoqlar yaltirar.



Qo'shiq tinglaymiz

YANGI YILIM – YAXSHI YILIM

P. Mo'min she'ri

D. Zokirov musiqasi

Quvnoq, shoshilmay



Xush ke- lib- san, Yan-gi yi- lim, Yil- dan-yil-ga



yax- shi yi- lim, O...



Yan-gi yi- lim. A... Yan- gi yi- lim...




NOTA BILAN KUYLAYMIZ

Aks sado

O'qituvchi: 

O'quvchilar: 

Notalarni chapak bilan
sanashni o'rganamiz.


Bak ba-ka bum ba-ka ba-ka bum


Ba-ka bak ba-ka bak bak bak bum.

«Yomg'ir yog'aloq» qo'shig'ini avval so'zlari bilan, so'ngra nota nomlari bilan aytamiz.

Tez


Yom-g'ir yo- g'a- loq, yam- ya- shil o't- loq.


En- di e- kin- lar chi- qa- rar qu- loq.



SAVOLLAR

Yakkaxon deb nimaga aytildi?
Xonandalar ansambl qanday bo'ladi?
Ikkita nimchorak nota nechta chorak notaga teng?
«Kitobim qo'limda» qo'shig'inining musiqasini kim yozgan?
Ikkinchи chorakda o'rgangan qaysi qo'shiqlar sizga ko'proq yoqdi?



UCHINCHI CHORAK



Kuy har qanday musiqaning asosidir. Kuy turli balandlikdagi va uzunlikdagi musiqiy tovushlarning yig‘indisidan hosil bo‘ladi. Ohang-dorlik kuyning asosiy fazilatidir. Kuylar biror bir cholg‘u sozida yoki ovozda ijro etiladi.

«Mahallada duv-duv gap» kinofilmidan kuy tinglang.

M. Leviyev musiqasi

So‘zsiz qo‘sishq

O‘rtacha

The musical score consists of two staves of notes. The top staff begins with a quarter note followed by an eighth note, then a sixteenth-note pair, and a dotted half note. The bottom staff starts with a sixteenth-note pair, followed by a sixteenth-note pair, a sixteenth-note pair, and a sixteenth-note pair. Both staves end with a single eighth note.

Qo'shiq kuylaymiz

O'YNADIK, HECH TO'YMADIK

P. Mo'min she'ri

Sh. Yormatov musiqasi

Harakat bilan

Bag'ri ko'm-ko'k dala - lar, da- la- lar, Gul-la- ri ko'p
da- la- lar, da- la- lar.
Qa-rang, ju-da keng e- kan,
Naqarot
Bir o- lam- ga teng e- kan. Da - la - lar- da
o'y- na- dik, Hech o'- yin- ga to'y- ma- dik.

Bag'ri ko'm-ko'k
dalalar,
Gullari ko'p dalalar.
Qarang, juda keng
ekan,
Bir olamga teng
ekan.



N a q a r o t:

Dalalarda o'ynadik,
Hech o'yinga to'ymadik.
Oftob bizni ko'rardi,
O'ynaymi, deb so'rardi.
Shamol asta yelardi,
Davramizga kelardi.

N a q a r o t



TAKT CHIZIG'I

Siz biladigan she'rlardagi kabi musiqada ham kuchli, ya'ni urg'uli tovushlar bo'ladi. Nota yo'liga yozilgan ana shu urg'uli tovushlar oldidan tik chiziq tushiriladi, u TAKT CHIZIG'I deb ataladi.

Biz yoz-da o'y- nay-miz, yax-shi dam o- la-miz.


Ikki urg'uli tovush oralig'idagi kuy bo'lagi TAKT deb ataladi.

1- takt	2-takt	3-takt	4-takt
---------	--------	--------	--------

Qu-yo-nim, qu-yo-nim, ni- ma bo'l- di?

TAKTlar ikki chorakka teng bo'lgan turli cho'zimdagi notalardan tuzilishi mumkin. Bunday taktlar bir-ikki deb sanaladi.

Takt o'Ichovini ko'rsatuvchi raqamlar esa kalitdan so'ng yoziladi:



Musiqa tinglaymiz

SHOHI SO'ZANA

A. Muhamedov musiqasi

Sho'x



The musical score consists of five staves of music for a single instrument, likely a drum or a rattle. The music is in common time (indicated by a 'C') and features a key signature of one flat (B-flat). The notation includes various rhythmic patterns such as eighth and sixteenth notes, along with rests and dynamic markings like a crescendo symbol (>) and a decrescendo symbol (<). The score concludes with a double bar line and repeat dots.



USUL BERIB NOTALARNI SANASHNI O'RGANAMIZ

Yozilgan mashqlarga dastlab «bak-bum» so‘zi bo‘g‘inlarini ovozda aytib, so‘ngra stol chetida barmoqlar bilan usul berib jo‘r bo‘lamiz:



Ba-ka bak ba-ka bak ba-ka ba-ka bum bak ba-ka bak bak



ba-ka ba-ka bum bak ba-ka bak bak ba-ka ba-ka bum



Ba-ka bak ba-ka bak ba-ka ba-ka bum bak ba-ka bak bak



ba-ka ba-ka bum bak ba-ka bak bak ba-ka ba-ka bum





*Shermat Yormatov
(1939)*

O‘zbekiston xalq artisti, bolalarning sevimli kompozitori Shermat Yormatov ko‘p yillardan beri yosh qo‘sishqsevarlarga san’at sirlarini o‘rgatib kelmoqda. Ustozning o‘zlari tashkil etgan va rahbarlik qilayotgan «Bulbulcha» bolalar xori nafaqat respublikamizda, balki ko‘plab chet mamlakatlarda o‘zbek bolalar qo‘sishchilik san’atini targ‘ibot qilmoqda.

Shermat Yormatov «Oymomajon rom bo‘ldi», «G‘ildiragim», «Sog‘lom avlod qo‘srig‘i» kabi o‘nlab bolalar qo‘shiqlarini yaratgan.

Qo'shiq tingleymiz

SOG'LOM AVLOD QO'SHIG'I

S. Barnoyev she'ri

Sh. Yormatov musiqasi

O'rtacha tez

Qu-yosh bo'l-sin, oy bo'l-sin, O'z-be-kis-ton
boy bo'l-sin. Men-ga at-las, u-kam-ga
gi-jing-la-gan toy bo'l-sin. Men-ga at-las,
u-kam-ga gi-jing-la-gan toy bo'l-sin.
Da-dam yuz-ga kir-sin-lar, a-yam yuz-ga
kir-sin-lar, hey. Biz-lar yuz-ga kir-gan-da
yo-ni-miz -da yur-sin-lar. Biz-lar yuz-ga
kir-gan-da yo-ni-miz -da yur-sin-lar.

O'saversin bo'yimiz,
Tenglik – orzu-o'yimiz.
Bu dunyoda bor
bo'lsin
O'zbekiston – uyimiz.

N a q a r o t:
Dadam yuzga kirsinlar,
Ayam yuzga kirsinlar,
Bizlar yuzga kirganda
Yonimizda yursinlar.

REBUS

Sizlarga tanish bo'lgan qo'shiq asosida tuzilgan quyidagi rebusni o'qing:

DO, RE, MI, FA, SOL, LYA, SI,

MAKTAB PIANINO 

K  VISHI OQ - QORA,

AVA  NG KELAR QARA.

She'rda yetishmayotgan bo'g'inlar notasini toping.

VATANI  Z ONA  Z,

JONDAN AZIZ KO'RA  Z.

GO'ZAL ONA-VATANNING

CHIN  RZANDI BO'LA  Z.

Toping:

Tovushqatorda qaysi notalar tushirib qoldirilgan?



Musiqa tingleymiz

GULBAHOR

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez

mf



Qo'shiq kuylaymiz

BUVIJONIM

Yu. Suyunov she'ri

Shoshmasdan, quvnoq

D. Omonullayeva musiqasi

Menga tengsiz mehri bor,
So'z-la-ri-da seh-ri bor.

Er-tak ay-tib tol-may- di, - - -
Er-ka-la-tib hor-may-

Naqarot
di.
Buvijonim, bu-vi-jon,
mehribonim bu-vi-jon.

Onaginam o-na-si - - -
Sho'x zabonim buvi - jon!

Ko'rolmasa bir kuni
Uxlay olmaydi tuni.
Ko'ngli sog'inchga to'lib,
Izlar parvona bo'lib.

N a q a r o t :

Buvijonim, buvijon,
Mehribonim buvijon.
Onaginam onasi,
Sho'x zabonim buvijon!

Baxtimga omon yuring,
Xushxandon davron suring.
Ko'zingiz namlanmasin,
Dilingiz g'amlanmasin.

N a q a r o t



TONIKA — kuyning tayanch va eng barqaror tovushi.


Har bir qo'shiqda **TONIKA** tovushi bor.
Qo'shiq **TONIKA** tovushi bilan tugallanadi.
Mashqlarni diqqat bilan tinglang va **TONIKA** tovushini toping.



«Do» – bu mashqning **TONIKA** tovushi.

Bu mashqni nota nomlarini aytib o'qituvchi kuylaydi.

Oxirgi **TONIKA** tovushini esa o'quvchilar aytib tugallaydilar.



O'zingiz o'rgangan «Maktabim», «Kakku», «O'ynaylik» qo'shiqlarining **TONIKA** tovushini toping va nota nomini aytинг.



Musiqa tingleymiz

OLMACHA ANOR

O'zbek xalq kuyi

Sho'x

The musical score is composed of five staves of music. The first staff begins with a quarter note followed by an eighth note, then a sixteenth-note pattern. The second staff starts with a dotted half note. The third staff begins with a quarter note followed by an eighth note, then a sixteenth-note pattern. The fourth staff starts with a dotted half note. The fifth staff begins with a quarter note followed by an eighth note, then a sixteenth-note pattern.



Qo'shiq kuylaymiz

NAVRO'ZIM — SHO'X SOZIM

H. Rahmat she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha tez

Nav-ro'z kel-di, nav-ro'z kel-di ku-lib, ku-lib,
Bo-g'u da-lam, bo-g'u da-lam gul-ga to'-lib,
Naqarot
Qush-lar say-rar juft-juft bo'-lib. Nav-ro'zim, o'z so'-zim,
Shod o-vo-zim, shod o-vo-zim, sho'x so-zim.

Navro'z keldi kulib-kulib,
Bog'-u dalam gulga to'lib,
Qushlar sayrar juft-juft bo'lib.

N a q a r o t :

Navro'zim, o'z so'zim,
Shod ovozim, sho'x sozim.

Navro'zimni sevar jahon,
Ona diyor hur guliston,
Kundan kunga zavqli davron.

N a q a r o t :



Qo'shiq yoki musiqa asarining biror bo'lagini ikki marta takrorlab ijro etish zarur bo'lsa qaytariq (repriza) belgisidan foydalilaniladi.

Quyidagi qo'shiqn ni o'rganish orqali qaytariq belgisini puxta o'zlashtirib olasiz:

UXLAB TURDIM

I. Muslim she'ri

Salmoqlab

O- yi- jo- nim, bu- gun yax-shi ux- lab tur- dim.

Ju -da qi- ziq, ju- da shi- rin tush- lar ko'r- dim.

Naqarot
Siz- ga, siz-ga as- sa-lom! Ham-man-giz-ga as- sa- lom!

Yumshoq yostiq,
Issiq ko'rpa,
Rohat, rohat.

O'z vaqtida
Uyg'onishga
Qildim odat.

N a q a r o t:

Sizga, sizga assalom!
Hammangizga assalom!



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Kuy qanday hosil bo'ladi?

Repriza nima?

Kompozitor Shermat Yormatovning qanday qo'shiqlarini bilasiz?

Bu chorakda yana qanday yangi cholg'ular bilan tanishdingiz?

Tonika kuyning qanday tovushi hisoblanadi?

Sizga ko'proq qo'shiq aytish yoqadimi yoki musiqa tinglashmi?

Uchinchi chorakda sizga yoqqan qo'shiq va kuylarni aytинг.



TO'RTINCHI CHORAK

MUSIQANING IFODA VOSITALARI



Musiqaning mazmunini yoritishda turli ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ifoda vositalariga sur'at, usul, tovush jo'shqinliklari, tovush tusi kabilar kiradi. Quyidagi ikki misolda musiqaning ifoda vositalaridan biri bo'lgan sur'atning kuy kayfiyatiga qanday ta'sir etishini kuzating: «**Jonon**» kuyini sho'x sur'atda tinglang.

M. Mirzayev kuyi

Musical notation for the first part of the song. It consists of three staves of music in 2/4 time, treble clef, and a key signature of one sharp. The notes are primarily eighth and sixteenth notes, with some quarter notes. The melody is simple and repetitive, designed for a single performer.

Musical notation for the second part of the song. It consists of three staves of music in 2/4 time, treble clef, and a key signature of one sharp. The notes are primarily eighth and sixteenth notes, with some quarter notes. The melody continues the pattern established in the first part.

Endi shu kuyni og'ir sur'atda tinglab ko'ring.

Musical notation for the third part of the song. It consists of three staves of music in 2/4 time, treble clef, and a key signature of one sharp. The notes are primarily eighth and sixteenth notes, with some quarter notes. The melody concludes the piece.

Qo'shiq tinglaymiz

LAYLAK KELDI

Vazmin

O'zbek xalq kuyi

Lay- lak kel- di, yoz bo'l-di, qa- no- ti qo-
g'oz bo'l- di, Da- la - dasht-lar qulf u- rib,
dar- yo bo'- yi soz bo'l- di.



Qo'shiq kuylaymiz

BULBULGA

Uyg'un she'ri

G'. Qodirov musiqasi

O'rtacha tez

mp

Jon bul-bu- lim, bul- bu- lim,
bog'-da o-chil-gan gu- lim. Sen-ga qu-choq ke-ra-man,
gul- la- rim- dan be- ra-man. be- ra- man.

Jon bulbulim, bulbulim,
Bog'da ochilgan gulim.
Senga quchoq keraman,
Gullarimdan beraman.

Sen ham menga do'st bo'lib,
Atrofimda o'ynab yur.
Men darsimni tayyorlay,
Sen ashula qilib tur.



TINGLANG, KUZATING, TOPING

O'qituvchi bu ikki misoldan qaysi birini chaldi?

1. 2.

O'qituvchi bu ikki misoldan qaysi birini aytdi?

1. 2.

Lya Lya

1. 2.

Lya Lya

Bu misoldan eng baland va eng past tovushni toping:

Bu misoldagi kuyning oxirgi yetishmayot-gan tovushini toping:





*Nadim Norxo'jayev
(1947)*

Bolalarning sevimli kompozitori Nadim Norxo'jayev o'zining rang-barang qo'shiqlari bilan respublikamiz musiqa hayotiga kirib keldi.

Bastakorning «Chamandagi gullarmiz», «Yaxshi bola», «Gullar manim kulganim», «O'zbekimdan aylanay!» kabi qo'shiqlarini bolalar sevib kuylaydilar.

Musiqa tingleymiz

VARRAGIM

N. Norxo'jayev musiqasi

Tezroq



Qo'shiq kuylaymiz

HAKKALAR

N. Orifjonov she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Quvnoq

mf

O- la qa- not hak- ka- lar, Shox- dan shox-ga
qo'-na- siz, Chi- g'ir- chig'-lab ni- ma(ni)-dir
Iz -lab top-gan bo'-la-siz. Te- rak-lar-ning u-chi-dan
siz- ga bo- qar po- la- pon. Qa-mish- zor- lar
i- chi- dan Un- ga qa- rab qo- la- man.

Shoshqaloqlab

tumshug'in

Siz tomonga tutadi.

Hali yosh, yo'l-yo'rig'in

Topmay najot kutadi.

Uni boqish farzingiz,

Yurmang muncha

hakkalar.

Boshqalardan farqingiz

Yengiltaksiz, hakkalar.

Ola qanot

hakkalar,

Shoxdan shoxga

qo'nasiz.

Chig'irchig'lab

nima(ni)dir

Izlab topgan

bo'lasiz.





Odatda qo'shiqlar ham, kuylar ham ikki xil jaranglaydi. Biri quvnoq, sho'x jaranglasa, boshqasi ma'yus va mungli eshitiladi.

Quvnoq jaranglagan kuylar MAJOR tizilmasisida bo'ladi.

Mungli eshitilgan kuylar esa MINOR tizilmasisida bo'ladi.

Major tizilmasisidagi kuy parchasini tinglang:




Endi shu tizilmadagi uchtovushlikni kuylang:



Minor tizilmasisidagi kuy parchasini tinglang:



Endi shu tizilmadagi uchtovushlikni kuylang:





*Dilorom Omonullayeva
(1959)*

Kompozitor Dilorom Omonullayeva serqirra ijodining ko‘p qismini bolalarga bag‘ishlagan. Uning «Alifbe qo‘shiqlari», «Topishmoq qo‘shiqlar» deb nomlanuvchi qo‘shiqlar to‘plamlari hamda «Etikcham», «Humo qushim», «Aziz bo‘ston – O‘zbekiston», «O‘zbek elim — bek elim», «Diloromning qo‘srig‘i» kabi ko‘plab rang-barang qo‘shiqlari o‘quvchi-yoshlar ichida mashhur.

Qo'shiq kuylaymiz

HANDALAK

P. Mo'min she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

Tezroq

The musical score consists of two staves of music in 2/4 time, A major (F# C D E G). The first staff starts with a dotted half note followed by eighth notes. The second staff begins with a quarter note. The lyrics are written below the notes, corresponding to the musical phrases. The score includes several endings and repeat signs.

Handa-lak, han-da-lak. Pish-gan e-di,
tar - qal - di, tar-qal - di har yon hi-di.
Eg- ni - da be- qa - sam to'n ti - ki - lib- di
ju-da jo'n. Eg- ni-da be- qa-sam to'n ti- ki - lib-di
ju-da jo'n. Lya-lya-lya, lya-lya-lya.
Lya-lya-lya-lya-lya-lya-lya-lya lya-lya-lya. Lya.

N a q a r o t :

Handalak, handalak,

Pishgan edi,

Tarqaldi, tarqaldi

Har yon hidi.

Egnida

Beqasam to'n,

Tikilibdi

Juda jo'n.

Har bittamiz

Pushtadan

Olib chiqdik

Uchtadan.

N a q a r o t

Bittadan


So'yib yedik.

Rosayam

To'yib yedik.

CHOLG'U SOZLARI BILAN TANISHING





*Avaz Mansurov
(1957)*

Avaz Mansurov o‘quvchi-yoshlarning sevimli kompozitorlaridan biri. Uning qo‘shiqlari o‘zining rang-barang mazmuni bilan, ohangining jozibasi va yoqimliligi bilan yosh xonandalar qalbidan o‘rin olgan.

Kompozitorning «Muzqaymoq», «Bolarilar», «Kitob mening do‘stimdir», «Istiqlolim» kabi qo‘shiqlari shular jumlasidan.

Qo'shiq tinglaymiz

MUZQAYMOQ

H. Qayumov she'ri

A. Mansurov musiqasi

S. Shoshilmay

Muzday muzdek muzqay-moq,
Sut-day op- poq
soz qay-moq. Muzday muzdek muzqaymoq, Sut-day op- poq
soz qay-moq. As- ta- gi-na a-vay- lab, a- vay- lab,
Chaynamasdan atay- lab, a- tay- lab, Sol-ganimda og'zimga
E- rib ketar bir zum-da. E-rib ke tar bir zum da.
Soz qay - mo -g'im muz-qay - moq.

Muzqaymog'im hozir ham
Eridi-yu, yo'qoldi.
Lekin totli mazasi
Mening og'zimda qoldi.
Muzday muzdek muzqaymoq,
Sutday oppoq soz qaymoq.



Qo'shiq kuylaymiz

DAKAN XO'ROZ

P. Mo'min she'ri

A. Mansurov musiqasi

Sho'x

Qich-qir, xo'- roz,
Qich-qir, xo'- roz,
Chiqsin oftob,
Chaqir, xo'-roz.

Qichqir, xo'roz,
Qichqir, xo'roz,
Chiqsin oftob,
Chaqir, xo'roz.

Qanotlaring
«Tap-tap» etar,
Qichqirganing
Har yon ketar.

N a q a r o t:

Ukang xo'roz,
Akang xo'roz,
O'zing xo'roz,
Dakan xo'roz.

N a q a r o t

Ovozingni
Anglasalar,
Uxlolmaydi
Dangasalar.

DIRIJORLIKNI O'RGANAMIZ

Musiqa darslarida jamoa (xor) bo'lib kuylaganingizda o'qituvchingiz qo'l harakatlari bilan dirijorlik qilishini bilasiz. Dirijor xorni qo'l harakatlari bilan boshqarib boradi.

Siz ham dirijorlik harakatlarini o'rganing.

Qo'shiq turli o'Ichovda (sanoqda) bo'lishiga qarab dirijor qo'l harakatlari ham turlicha bo'ladi. Masalan, «bir-ikki», deb sanaladigan ikki chorakli o'Ichovdagi qo'shiqqa dirijor qo'llarini pastga va yuqoriga qarab harakatlantiradi.

«Bir» deganda o'ng qo'l yuqoridan pastga tushiriladi:



«Ikki» deganda esa qo'l pastdan yuqoriga ko'tariladi:



Demak, «bir-ikki» deganda shunday dirijorlik qilinadi:



Endi ikki chorakli o'Ichovdagi qo'shiqlarni o'zingiz shunday dirijorlik qilishga o'rganing.

NOTAGA QARAB KUYLANG

So‘z bo‘g‘inlari har bir notada kelishi mumkin.

Musical notation in G clef, 2/4 time. The first line shows a single note followed by a rest, then a note, another rest, and a note, followed by a fermata and a rest. Below it, the lyrics "Mak- tab- ga kel- dik" are written under the notes. The second line shows a single note followed by a rest, then a note, another rest, and a note, followed by a fermata and a rest. Below it, the lyrics "la la la la la" are written under the notes.

Ikki nota bir so‘z bo‘g‘inida kelishi mumkin. Bunday holda notalar yoy – liga belgisi bilan bog‘lanadi va nafasni uzmasdan ijro etiladi.

Musical notation in G clef, 2/4 time. It consists of three eighth notes connected by a horizontal line, followed by a rest. Below it, the lyrics "lo- la- lar" are written under the notes.

Bir so‘z bo‘g‘ini ikki va undan ortiq notalarda kelishi ham mumkin.

Musical notation in G clef, 2/4 time. It shows a single note followed by a long horizontal line extending across three measures, ending with a fermata. Below it, the lyrics "Lya" are written under the note.

Bu mashqlarni aytganda, birinchi va ikkinchi misolda, notalardagi so‘z bo‘g‘inlarining donadona, ravshan chiqishiga ahamiyat bering. Uchinchi va to‘rtinchi misollarni aytganda, tovushlarni bir-biriga bog‘lab ayting.



SAVOLLAR

Kompozitor A.Mansurovning «Muzqaymoq» qo'shig'ida nima aks ettirilgan?

Major va minorni bir-biridan nimasi bilan farqlash mumkin?

Ikki chorakka qanday dirijorlik qilinadi?

Musiqadagi qanday ifoda vositalarini bilasiz?

«Handalak» qo'shig'inинг mazmunida nima yori-tilgan?

Qanday o'zbek xalq qo'shiqlarini bilasiz?

Bu chorakda qaysi kompozitorlar bilan tanishdingiz?

Bu chorakda o'rgangan va tinglagan qanday asarlar sizga ko'proq yoqdi?



Musiqa tingleymiz

GULXAN

D. Zokirov qayta ishlagan

O'rtacha, shoshilmay

The musical score consists of seven staves of music for a single instrument. The key signature is one sharp (F#), and the time signature is 2/4. The dynamics are indicated as follows: *mp* (mezzo-forte) for the first two staves, *f* (forte) for the third staff, and *mp* again for the remaining four staves. The music features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and dynamic markings such as accents and slurs.

Kuya xos harakatlar topib, unga jo'r bo'ling.

Qo'shiq kuylaymiz
BOG' ICHIDA

I. Jiyanova she'ri

X. Hasanova musiqasi

Tez

The musical score consists of ten staves of music. The first staff starts with a treble clef, a key signature of one flat, and a common time (indicated by 'c'). The lyrics are: Bog' i - chi - da gul o-chi - lib - di. The second staff continues the melody. The third staff begins with 'Bo'-yi har ta - raf - ga so-chi- lib - di.' The fourth staff continues. The fifth staff begins with 'Chi-ro - yi- ni ko'rib kapa- lak - lar, Men- dan av- val'. The sixth staff starts with a bracket labeled '1.' above the notes and '2.' below the notes, indicating two endings. The first ending continues the melody, and the second ending ends with a rest. The seventh staff begins with 'bo-g'im - ga ke- lar.' The eighth staff continues. The ninth staff begins with 'Gul g'un-cha- si - ni uz-gim ke - lar,'. The tenth staff concludes the piece with 'U-ning su- ra- ti- ni chiz-gim ke - lar.'

1. 2.

bo-g'im - ga ke- lar.

Gul g'un-cha- si - ni uz-gim ke - lar,

U-ning su- ra- ti- ni chiz-gim ke - lar.

Qo'limga ip - igna o-lib so' - za - na-

ga, Cha-man- zor- ni

chiz-gim ke-lar o' - zim ya - na.

KUYLANG, TINGLANG, ESLANG, TOPING

Quyidagi kuylardan o'zingizga tanish bo'lgan qo'shiqlarni topping va ularni nota bilan kuylang:



**Aytgan qo'shiqlaringizni va tinglagan
kuylaringizni doimo yodingizda saqlang.**



Qo'shiq kuylaymiz

ARG'IMCHOQ

K. Rahim she'ri


J. Najmiddinov musiqasi

Tez

Biz ya- sa- gan ar- g'im- choq sa- mo- lyot- dek
tez u- char. Dav- ra- miz- ga kel, o'r- toq,
uch- gan- da zav- qing to- shar, qing to- shar.

Arg'imchoqni qo'ymaymiz,
Uchib sira tolmaymiz.
Ko'tarilib goh tikka,
Intiladi u ko'kka.

Bo'Iganimizda katta,
Boshqaramiz raketa.
Birgalashib hammamiz
Oyga uchib boramiz.



Qo'shiq tinglaymiz

DO'PPI KIYGAN BOLALAR

Qambar Ota she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Sho'x

7

Do'p-pi-sin kash-ta- si- da

Aks e-ta- di ti- lim oy.

Te-pa - si-da nur so-chib Tu-rar go'-yo

so'- lim oy. Do'p-pi kiy-gan bo-la-ning

Yo'I-la-ri yor-qin bo'lar. Me-hr to'-la

yu- ra- gi, me -hr to'- la yu- ra- gi Xal - qi - ga

ya - qin bo' - lar.

2. Assalom degan so'zi
 Hammaga hurmatlidir
 Do'ppi kiygan bolaning
 Odobi qimmatlidir

Do'ppi kiygan bolalar
 Hayotda o'sib unsin
 Peshonasi yarqirab
 Boshlariga baxt qo'nsin

MUNDARIJA

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi. A. Oripov so'zi,	
M. Burhonov musiqasi.....	3
Qo'shiq aytish qoidalari.....	5
Vatanjonim – vatanim. P. Mo'min she'ri, D. Omonullayeva musiqasi....	6
Takrorlash.....	7
Usmoniya. O'zbek xalq kuyi.....	8
Qanday tovushlarni bilasiz?.....	9
Yakkanavozlik.....	10
Maktabim. I. Muslim she'ri, F. Nazarov musiqasi.....	11
Notalarning bo'linishi.....	12
Jo'rnavozlik.....	13
Qizaloq. T. Nazarov she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi.....	15
Chiziqda va chiziqlar orasida joylashgan notalar.....	16
Ota-onalarga. E. Rahimov she'ri, G'. Qodirov musiqasi.....	17
O'ynaylik. A. Rahmat she'ri, IL. Akbarov musiqasi.....	18
Savol va topshiriplar.....	20
Farg'onacha. O'zbek xalq kuyi.....	21
Kitobim qo'llimda. P. Mo'min she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi.....	22
Notalar cho'zimining sanog'ini o'rganamiz.....	23
Norim-norim. O'zbek xalq kuyi.....	24
Qadim Turon. P. Mo'mun she'ri, N. Norxo'jayev musiqasi.....	25
Cholg'ularni farqlang.....	26
Xorazm lazgisi.....	27
Archa bayrami. A. Rahmat she'ri, lk. Akbarov musiqasi.....	28
Yangi yilim – yaxshi yilim. P. Mo'min she'ri, D. Zokirov musiqasi....	29
Nota bilan kuylaymiz.....	30
Savollar.....	31
Kuy.....	32
O'ynadik, hech to'ymadik. P. Mo'min she'ri,	
Sh. Yormatov musiqasi.....	33
Takt chizig'i.....	34
Shohi so'zana. A. Muhamedov musiqasi.....	35
Usul berib notalarni sanashni o'rganamiz.....	36

<i>Shermat Yormatov</i>	37
Sog‘lom avlod qo‘shig‘i. <i>S. Barnoyev</i> she‘ri,	
<i>Sh. Yormatov</i> musiqasi.....	38
Rebus.....	39
Gulbahor. <i>O‘zbek xalq kuyi</i>	40
Buvijonim. <i>Yu.Suyunov</i> she‘ri, <i>D. Omonullayeva</i> musiqasi.....	41
Tonika.....	42
Olmacha anor. <i>O‘zbek xalq kuyi</i>	43
Navro‘zim – sho‘x sozim. <i>H. Rahmat</i> she‘ri,	
<i>N. Norxo‘jayev</i> musiqasi.....	44
Qaytariq belgisi.....	45
Savol va topshiriqlar.....	46
Musiqaning ifoda vositalari	47
Laylak keldi. <i>O‘zbek xalq kuyi</i>	48
Bulbulga. <i>Uyg‘un</i> she‘ri, <i>G’. Qodirov</i> musiqasi.....	49
Tinglang, kuzating, topping.....	50
<i>Nadim Norxo‘jayev</i>	51
Varragim. <i>N. Norxo‘jayev</i> musiqasi.....	52
Hakkalar. <i>N. Orifjonov</i> she‘ri, <i>N. Norxo‘jayev</i> musiqasi.....	53
Major va minor.....	54
<i>Dilorom Omonullayeva</i>	55
Handalak. <i>P.Mo‘min</i> she‘ri, <i>D. Omonullayeva</i> musiqasi.....	56
Cholg‘u sozlari bilan tanishing.....	57
<i>Avaz Mansurov</i>	58
Muzqaymoq. <i>H. Qayumov</i> she‘ri, <i>A. Mansurov</i> musiqasi.....	59
Dakan xo‘roz. <i>P. Mo‘min</i> she‘ri, <i>A. Mansurov</i> musiqasi.....	60
Dirijorlikni o‘rganamiz.....	61
Notaga qarab ayting.....	62
Savollar.....	63
Gulxan. <i>D.Zokirov qayta ishlagan</i>	64
Bog‘ ichida. <i>I. Jiyanov</i> she‘ri, <i>X. Hasanova</i> musiqasi.....	65
Kuylang, tinglang, eslang, topping.....	66
Arg‘imchoq. <i>K. Rahim</i> she‘ri, <i>J. Najmiddinov</i> musiqasi.....	67
Do‘ppi kiygan bolalar. <i>Qambar Ota</i> she‘ri,	
<i>N. Norxo‘jayev</i> musiqasi.....	68

HAMIDULLA NURMATOV, NADIM NORXO'JAYEV

MUSIQA

2-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 11-nashri

Muharrir *D.Ulug'murodov*
Badiiy muharrir *Sh. Mirfayozov*
Texnik muharrir *Ye. Koryagina*
Musahhih F.Ortiqova
Kompyuterda sahifalovchi *B. Tuxtarov*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 154. 14.08.09.
2016-yil 14-aprelda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 70x100¹/₁₆. Kegli 16. Pragmatika garnitura.
Ofset bosma. 5,80 shartli bosma toboq. 6,5 nashr tobog'i.
Adadi nusxa. raqamli buyurtma.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent, 100128. Labzak ko'chasi, 86.

Ijaraga berilladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r.	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mayjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.